



“KURSANTLARDA HARBIY DIPLOMATIK MUNOSABATLARDA HUJJATLAR BILAN ISHLASH KO’NIKMASINI RIVOJLANТИRISH”

Norboyeva Madina Diyor Qizi

Chirchiq oliy tank qo’mondonlik muhandislik bilim yurti

Tillar kafedrasi o’zbek tili o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola turli rasmiy xat-xabarlar va diplomatik tusdagi hujjatlar majmui. Davlatlar o’rtasidagi munosabatlarni yuritish vositasi, davlat tashqi siyosiy va diplomatik faoliyatining asosiy shakllaridan biri. Davlatlar o’rtasida yozishma tarzidagi muomala davlat, hukumat boshlig‘i, tashqi ishlari idorasi, turli davlat va jamoat tashkilotlari hamda muassasalari yoki ularning boshliklari, diplomatik vakillar va ayrim diplomatlar nomidan yo ‘lga qo ‘yib turiladi.

Kalit so’zlar: harbiy-professional yo’naltirish, harbiy kadrlar, OHTM kursantlari kontingentini sifatli butlash, dastlabki saralab olish, Qabul komissiyasi.

Abstract: This article is a collection of various official letters and diplomatic documents. A tool for conducting relations between states, one of the main forms of foreign political and diplomatic activity of the state. Correspondence between states is carried out on behalf of the state, the head of government, the foreign affairs office, various state and public organizations and institutions or their heads, diplomatic representatives and some diplomats.

Key words: military-professional orientation, military personnel, high-quality formation of contingent of OHTM cadets, preliminary selection, Admissions Commission

KIRISH

O’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti (keyingi o’rinlarda — Aloqa harbiy instituti) hamda O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasiga (keyingi o’rinlarda Harbiy tibbiyot akademiyasi) o’qishga kirish istagini bildirgan, tegishliligicha muhandislik-texnik ta’lim yo’nalishlari mavjud bo’lgan oliy ta’lim muassasalari hamda O’zbekiston davlat jahon tillari universitetining uchinchi bosqichini, oliy tibbiy ta’lim muassasalari davolash fakultetlarining beshinchi bosqichi va tibbiy-profilaktika fakultetlarining to’rtinchi bosqichini tamomlagan talabalar (keyingi o’rinlarda — talabalar) tegishli oliy ta’lim muassasalari rektorlari nomiga mazkur Nizomga 5-ilovaga muvofiq shakldagi ariza bilan murojaat qiladi. Arizalar oliy ta’lim muassasalari tomonidan ular joylashgan hududdagi tegishli mudofaa ishlari bo’limlariga ikki kun muddatda yuboriladi. O’zbekiston Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta’lim muassasalariga o’qishga kirishni xohlagan nomzodlar tomonidan mudofaa ishlari bo’yicha bo’limlarga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- ariza (bildirgi);
- pasport nusxasi;
- tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma nusxasi;



- chaqiriluvchining qayd etilganligi to'g'risidagi guvohnomasi yoki harbiy guvohnomasi;
- nomzod tomonidan qo'lida yoki kompyuterda yozilgan tarjimai hol;
- anketa (to'ldirilgan holatda);
- o'qish, ish (xizmatni o'tash) agar o'qiyotgan yoki ishlayotgan (xizmatni o'tayotgan) bo'lsa o'sha joydan ma'lumotnoma;
- ota-onasining ish joyidan ma'lumotnoma (agar ishlayotgan bo'lsa);
- ota-onasidan farzandining oliy harbiy ta'lim muassasasiga o'qishga kirishiga rozilik xati;
- ma'lumoti to'g'risidagi (umumiyl o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar) hujjatlar (asli va nusxasi) hamda reyting daftarchasi (baholar tabeli) nusxasi;
- oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda imtiyozlardan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar (asli va nusxasi);
- yaqin qarindoshlar orasida vafot etganlar bo'lsa, ularning o'lim haqida guvohnomasining nusxasi;
- 3x4 sm o'lchamdag 6ta fotosurat (bosh kiyimsiz va burchaksiz) hamda 4,5x6 sm o'lchamdag 4ta fotosurat (bosh kiyimsiz);
- nomzodning yashash joyidagi hududiy ichki ishlar organidan jinoiy javobgarlikka tortilmaganligi va sudlanmaganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma (kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar mazkur ma'lumotnomani taqdim qilishi talab etilmaydi).

Nomzoddan ayrim hujjatlarga aniqlik kiritish uchun qo'shimcha ravishda zarur hujjatlar va ma'lumotlar talab qilinishi yoki tegishli tashkilotlardan so'rab olinishi mumkin.

Nomzodlar tomonidan hujjatlarni taqdim etishda pasport, tug'ilganlik haqida guvohnoma, chaqiriluvchining qayd etilgani to'g'risidagi guvohnoma yoxud chaqiriluvchining harbiy guvohnomasi shaxsan ko'rsatiladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasasining qabul komissiyasi nomzodlar belgilangan qoidalarga, harbiy va xizmat intizomiga rioya qilmagan taqdirda ularni o'qishga qabul qilish bo'yicha tanlashning istalgan bosqichida chetlatish huquqiga ega.[2]

ADABIYOTLAR TAHILILI VA TADQIQOT METODIKASI

Zamonaviy kursantlarga harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi konsepsiyasini, ushbu faoliyat turiga tayyorlash tizimining nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqish va asoslash, ushbu tizimni sinovdan o'tkazdik. Tadqiqotda biz quyidagi taxminlardan kelib chiqdik: 1. Kursantlarni vatanparvarlik yo'nalishidagi tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning asosiy prognostik maqsadi - ularning muayyan ijtimoiy-pedagogik vazifalar kompleksini hal qilishga tayyorligini shakllantirishdir. 2. Dunyoqarash, ma'naviy-axloqiy, mafkuraviy munosabatlarni shakllantirish, vatanparvarlik tarbiyasining salbiy tajribasini bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan vositalar majmuasi harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning moslashuvchan o'zgaruvchan tizimini pedagogik loyihalash imkonini beradi. 3. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi uchun kursantlar tayyorlash tizimini ishlab chiqish va amalga oshirishning asosiy uslubiy yondashuvlari: tizimli, shaxsiyijtimoiy-faoliik, integratsiya va madaniy.[3]

MUHOKAMA VA NATIJALAR



Muammoni tahlil qilar ekanmiz, harbiy oliv o‘quv yurti kursantlarida intizomni shakllantirish jarayoniga bir qator zamonaviy ilmiy-pedagogik yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi. A.Y.Xusainov bu yondashuvlar orasida shaxsiy, faoliyatli, qadriyatli, insonparvarlik va kompleksyondashuvlarni ajratib ko‘rsatadi. Shaxsiy yondashuv – shaxsning yo‘nalganligi, uning qadriyat yo‘nalishlari, hayot rejalar, o‘rnatilgan munosabatlar kabi shaxsiy fazilatlarga tayanishni anglatadi. Ushbu yondashuv o‘quvchining shaxsiyatini, uning shaxsiy-sub’ektiv sifatini o‘quv jarayonining asosiy tashkiliy qadriyati sifatida tan oladi. Fikrimizcha, shaxsiyyo‘naltirilgan yondashuv – ta’lim jarayonini insonparvarlashtirishga, uni yuksak axloqiy va ma’naviy tajribalar bilan to‘ldirishga,adolat va hurmat tamoyillarini o‘rnatishga, shaxsning salohiyatini maksimal darajada oshirishga, uni rivojlantirishni rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Faoliyatli yondashuv – keljakda sub’ekt siifatida shakllangan va shaxs o‘zidagi davom etayotgan o‘zgarishlarni uning faoliyatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘laydigan muayyan faoliyat doirasidagina shaxsiy rivojlanish imkoniyatini belgilaydi. Umuman olganda, faoliyatli yondashuv – kursant hayotining umumiy hayot jarayonida – manfaatlarni yo‘naltirish, hayot rejalar, qadriyat yo‘nalishlari, ta’lim va tarbiyaning mazmunini anglash, sub’ekt sifatida shakllanishga qaratilgan shaxsiy tajriba orqali maqsadli ta’lim-tarbiya faoliyatini tashkil etish va boshqarishni anglatadi.[4]

XULOSA

Harbiy jamoalarda guruhiy jipslikni shakllantirish va harbiy xizmatchilar o‘rtasida askariy birodarlikni rivojlantirish maqsadida, avvalo harbiy xizmatchilar o‘zaro bir-birlarini jismoniy, axloqiy-ruhiy va har tomonlama yaxshi anglab olmog‘i lozim. Buning uchun guruhlarda jamoaviy birdamlikni oshirishga mo‘ljalangan timbildung va boshqa sport turlarni, shuningdek turli jamoaviy psixotreneglarni o‘tkazish tavsiya etiladi. Shuningdek, kursantlarning o‘quv va xizmat faoliyatida guruhiy jipslik darajasining psixologik jihatdan ijobiliyli, nerv qo‘zg‘alish kuchi barqarorligi, ijtimoiy-psixologik omillarning shakllanganligi, individuallik xususiyatlarining o‘sishi, kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan faktorlarning rivojlanganligi hamda harbiy xizmat faoliyatiga optimal darajada psixologik jihatdan tayyorlash kasbiy zo‘riqishlarning oldini olishiga o‘ziga xos asos sifatida xizmat qilishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://daryo.uz/2023/09/24/ozbekiston-oliy-harbiy-talim-muassasalarida-kursantlar>
2. [https://kun.uz/uz/news/2019/03/05/harbiy-bilim-yurtiga-oqishga-kirish-uchun-qanday-hujjatlar-zarur?](https://kun.uz/uz/news/2019/03/05/harbiy-bilim-yurtiga-oqishga-kirish-uchun-qanday-hujjatlar-zarur)
3. Kursantlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishning pedagogik psixologik omillari Norbek Sayfiddin o‘g‘li
4. <https://yuz.uz/uz/news/harbiy-kursantlarning-bilimdonligi-jamiyat-taraqqiyotining-muhibomili>